

**BUXORO VILOYATIDAGI DORIVOR O‘SIMLIKLARNING ETNOBOTANIK
MA’LUMOTLARI.**

Haydarova Sevinch Alijon qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti

Aniq va tabiiy fanlar fakulteti Kimyo

yo‘nalishi 1-kurs 24-gurux talabasi

Tel: 90 711-72-45 Gmail: elialjon175@gmail.com

1. Tadqiqot maqsadi. Buxoro viloyatining yovvoyi holda tarqalgan dorivor o‘simlik turlari va ularning xalq tabobati foydalanish uchun resurs salohiyatini o‘rganish bugungi kunning muhim muammolaridan biridir. Ayni paytda viloyatda xalq tabobatida, oziq-ovqat maxsuloti sifatida foydalaniladigan, xususan, xalq tabobatida keng qo‘llaniladigan juda ko‘p dorivor o‘simliklar o‘sadi. Bugungi davr talabidan kelib chiqib shuni ta’kidlash joiski, mahalliy dorivor o‘simliklarning aholi tomonidan foydalanilishi haqida axborotlarni rasmiylashtirish, ilmiy, amaliy ahamiyati o‘rganish va ulardan oqilona foydalanish to‘g‘risidagi ma’lumotlarni kelajak avlodga yetkazishdan iborat.

2. Tadqiqot ob’ekti va metodlari: Buxoro vohasi Zarafshon daryosining quyi qismida joylashgan bo‘lib, Turon provintsiyasi, Buxoro okrugi, Quyi Zarafshon rayoni tarkibiga kiradi. Buxoro viloyati hududida yovvoyi holda o‘sadigan dorivor o‘simliklarning xalq tabobatida va mahalliy oshxonada ishlatiladigan turlarini, ushbu o‘simliklarning botanik va farmatsevtik xususiyatlarini ilmiy va etnobotanik nuqtai nazardan isloh qilish davr talabi hisoblanadi. Tadqiqot natijalari asosida mahalliy aholi va xalq tabobati bilan shug‘ullanadigan tabiblar, cho‘ponlar va yoshi ulug‘ insonlar o‘rtasida o‘tkazilgan og‘zaki so‘rov natijalari bo‘yicha ma’lumotlar (“Etnobotanik anketa”) to‘plandi [1,2,4]. Shuningdek ilmiy ma’lumotlardan ham foydalanildi. Ushbu ma’lumotlar asosida quyida Buxoro viloyatidagi etnobotanik ahamiyatga ega ayrim dorivor o‘simliklarning tavsifi keltirilgan.

3. Tadqiqot natijalari va muhokamalar: Yalpiz, osiyo yalpizi *Mentha longifolia* (L.) – yalpizdoshlar (Lamiaceae) oilasiga mansub ko‘p yillik o‘tsimon o‘simlik, bo‘yi 30-115sm gacha yetadi, iyun-avgustda gullaydi, O‘zbekistonning barcha viloyatlarida nam yerlarda, ariq va daryo bo‘ylarida o‘sadi. Insonlar yalpizdan necha ming yillardan buyon foydalanganlar, qadimgi yunonlar va yaxudiylar undan dil qulfini ochadigan xushbo‘y atirlar tayyorlashgan. Yalpiz *Mentha longifolia* (L.)dan me‘da-ichak, siydik yo‘li xastaliklari, yo‘tal va bosh og‘rig‘ini davolashda, hamda hasharotlar va ilon chaqqanda, ularning zahriga qarshi vosita sifatida foydalanishgan. Rimliklar esa, asal aralashgan yalpiz musallasi ichilgandan so‘ng nafas yo‘lini tozalashini kashf etishgan. O‘simlik tarkibidagi efir moylari, ayniqsa, kamfora va mentol moyi a‘zolari savuq urganda, biror joy tilinganda gazak olib yiringlashdan saqlovchi yaxshi antiseptik hisoblanadi. Buyuk hakim, bobokalonimiz Abu Ali Ibn Sino “Yalpiz me‘dani quvvatlantiradi, uni qizdiradi, ovqat hazm bo‘lishiga yordam beradi, shilliq modda va qon qusishni to‘xtatadi, sariq xastaligi muolajasida nafi ko‘p” deb yozgan va yalpiz bilan ichdan qon ketishini davolaganlar [3,4].

Mahalliy aholi vakillari yalpizni o‘z oshxonalarida suyuq taomlarga, xushbo‘y ta‘mi sababli salqin ichimliklarga qo‘shib iste‘mol qiladilar. Bundan tashqari Buxoroda yalpizdan tinchlantiruvchi va tetiklashtiruvchi sifatida choy damlab ichiladi.

Sabzavot semizo‘ti *Portulaca oleracea* (L). - semizo‘tdoshlar (Portulacaceae) oilasiga mansub bir yillik, qizg‘ish tusli, yotiq poyaga ega bo‘lib 10-40 sm gacha uzunlikda ekinlar orasida, daryo, kanal bo‘ylarida, gulzorlarda ko‘proq uchraydi. Sabzavot semizo‘tidan juda qadimdan dorivorlik va ozuqa sifatida keng foydalanilgan. Shuningdek, bu o‘simlikdan organizmni tozalovchi vosita, tabiiy antioksidant (ilon va hasharotlar chaqishiga qarshi vosita) sifatida, jinsiy quvvatsizlik, depressiya, ko‘zning yallig‘lanishi, diabet, dizenteriya, astma, jigar va buyrak kasalliklari, siydik kasalliklarida (tsistit va uritrit), gemaroy, uyqusizlik, bosh og‘rig‘i kabi kasalliklarni davolashda qo‘llaniladi [5,6]. Bundan tashqari o‘simlikdan qondagi qand va xolestirin miqdorini kamaytirishda, qorin dam bo‘lishini oldini olishda, yaralarni tez bitishini ta‘minlashda va tana haroratini tushirishda ham ishlatiladi. Sabzavot semizo‘ti *Portulaca oleracea*dan Buxoro hududida yashaydigan aholining deyarli yarmiga yaqin qismi oziq-ovqat uchun ishlatadi, ovqatga ishlatiladigan tabiiy holda o‘sovchi dorivor o‘simliklar faqatgina mamlakatimizda emas balki dunyoning boshqa mamlakatlarda Xitoy, Rossiya, Koreya, Hindistonda oziq-ovqat mahsulotlari sifatida keng foydalaniladi [2,4,5].

Xulosa. Buxoro viloyatida yovvoyi holda tarqalgan dorivor o‘simlik turlarining botanik va farmakologik xususiyatlarini, ularning xalq tabobati va an‘anaviy tibbiyotda foydalanish uchun resurs salohiyatini o‘rganish zamon talabi hisoblanadi. Mahalliy aholi tomonidan dorivor o‘simliklardan oziq-ovqat sifatida ishlatiladigan turlarini aniqlab ularning ishlatilish usullarini yozib qoldirish etnobotanikaning muhim muammolaridan biridir. Ayni paytda viloyatda xalq tabobatida, xususan, an‘anaviy tibbiyotda qo‘llaniladigan 200 ga yaqin yovvoyi holda o‘sovchi dorivor o‘simliklar mavjud. Bugungi davr talabidan kelib chiqib shuni ta‘kidlash joiski, yovvoyi holda o‘sadigan dorivor o‘simliklarning ilmiy va amaliy ahamiyati ularni an‘anaviy tibbiyotda qo‘llash bilan belgilanadi.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Haydarovich, E. A., & Kurbanovich, E. H. (2022). Ethnobotanics of Certain Medicinal Plants of Bukhara Region (Uzbekistan). *American Journal of Plant Sciences*, 13(3), 394-402.
2. Хожиматов, О. К., & Эшонкулов, А. Х. (2020). The role of ethnobotanical research in environmental protection. *Школа Науки*, (3), 6-9.
3. Haydarovich, E. A. (2023). ROLE OF ETHNOBOTANIC INFORMATION IN SCIENTIFIC MEDICINE. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(4), 2026-2030.
4. Eshonkulov, A.H. and Hojimatov, O. (2021) Ethnobotanical Research in Bukhara Region. Scientific Bulletin №7, Namangan State University, Namangan.
5. The ISE Code of Ethics 2006. International Society of Ethnobiology. (<http://www.ethnobiology.net>).